

## 5-dars: KUZGI O'RMON

### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning kuzgi o'rmonning go'zalligi haqida tushunchalarini kengaytirish;
- akvarel bo'yoqlari va barglar shtamplari bilan rasm chizish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- shtamplardan foydalanib, o'z kompozitsiya va kombinatsiyalarini yaratish qobiliyatini rivojlantirish.

### Kerakli materiallar:

darslik, gadget, akvarel bo'yoqlar, daraxt barglari, mo'yqalamlar, A4 o'lchamli qog'oz.

### DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

#### 1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

#### 2. Kirish qismi (5 minut)

O'qituvchi tomonidan savollar beradi. Dars mavzusi e'lon qilinadi:

1. Sizga bostirib ishlash (shtamp) usulida ishlash yoqdimi?
2. Shunday uslub yoki texnikada kompozitsiya ishlashni xohlaysizmi?

#### 3. Amaliy ish (25 minut)

O'qituvchi amaliy mashg'ulotni boshlashdan oldin "Kuz" mavzusida she'r o'qib beradi.

Предлагаемый вариант стихотворения:

*Boqsam daraxt, o'tloqqa, qirga,  
Kuz aksini ko'raman faqat.  
Kuzning uzgan barglari yerga,  
To'kiladi qavatma-qavat.*

*Issiqsevar qushlar o'zicha,  
"Yoqtirishmas" iqlimni endi.  
Faqat qarg'a, chumchuq. musicha,  
"Bir amallab" yashashga "ko'ndi".*

*Qalinchashdi kiyimlar bir oz,  
Ayab sochar nurlarin quyosh.  
Mexmon bo'lar yomg'ir xam tez-tez,  
Qishligini g'amlar qari-yosh.*

O'qituvchi kuzgi o'rmon mavzusidagi bostirib ishlash (shtamp) uslubida bajarilgan ishlarini gadjet yoki slaydlar orqali ko'rsatib o'tadi.

O'quvchilardan o'zlari bilan olib kelgan barglardan 2-3 tasini tanlab olish, yoki sinfdoshlari bilan almashishlari ham mumkinligi aytildi. O'qituvchi tomonidan darslik yoki slaydlardagi namunalarga asoslanib, kuzgi kompozitsiyalarini ishlash tushuntiriladi.

Amaliy ishni o'tgan darsda o'rgangan usulda bajaradilar. Mashg'ulot oxirida o'quvchilar bir-birlariga ishlagan ishlarini ko'rsatib, taassurotlari bilan bo'lischadilar.

#### **4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)**

Dars oxirida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar tayyorlagan ishlarini bir-birlariga ko'rsatib, yutuqlarini baholashlari so'raladi. Agar ish yoqqan bo'lsa, o'quvchilar o'z ishlarini almashadilar, agar yoqmagan bo'lsa, ishlarini o'zlarida qoldiradilar. Uy vazifasi sifatida o'quvchilarga turli daraxtlardan bir nechta barg olib kelish topshirig'i beriladi.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- Tasviriy san'atda tasvir bajarish metodlarining kengligi va xilma-xilligini anglab yetadilar;
- akvarel bo'yoqlari va bostirib ishlash(shtamplar) usulida tasvir bajarishni o'rganadilar.